

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2025- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasi 1 268,7 mln. AQSH dollarini va o'zgarish sur'ati 107,2 % ni, jumladan 415,6 mln. AQSH dollarini – eksport operatsiyalari yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, 853,1 mln. AQSH dollarini – import operatsiyalari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil etdi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida
viloyatning tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)**

| | yanvar-mart | | 2024- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida |
|-------------------------------|----------------|----------------|---|
| | 2024- yil | 2025- yil | |
| Tashqi savdo aylanmasi | 1 183,5 | 1 268,7 | 107,2 |

shu jumladan:

| | | | |
|------------------|--------------|--------------|--------------|
| MDH davlatlari | 528,3 | 579,1 | 109,6 |
| boshqa davlatlar | 655,2 | 689,6 | 105,2 |
| Eksport | 406,2 | 415,6 | 102,3 |

shu jumladan:


| | | | |
|------------------|--------------|--------------|--------------|
| MDH davlatlari | 183,8 | 192,9 | 105,0 |
| boshqa davlatlar | 222,4 | 222,7 | 100,1 |
| Import | 777,3 | 853,1 | 109,7 |

shu jumladan:

| | | | |
|------------------|-------|-------|-------|
| MDH davlatlari | 344,5 | 386,2 | 112,1 |
| boshqa davlatlar | 432,8 | 466,9 | 107,9 |

Tashqi iqtisodiy faoliyat

Viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning hajmlari (mln. AQSH dollari) va ulushi % da



2025- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulush 2024- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga ko'paydi.


Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 54,4 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida viloyat eksport-importi tarkibi

| | <i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i> | | <i>O'tgan yilga nisbatan % hisobida</i> |
|--|--|------------------------------|---|
| | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | <i>2025- yil yanvar-mart</i> | |
| Eksport tarkibi | 100,0 | 100,0 | 102,3 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 12,9 | 10,3 | 129,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,5 | 0,3 | 148,5 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 2,9 | 4,0 | 75,1 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallari | 0,4 | 0,9 | 46,4 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,0 | 0,6 | 165,3 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 6,0 | 5,7 | 106,8 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 57,5 | 59,1 | 99,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar | 4,6 | 3,6 | 128,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 13,1 | 15,3 | 87,4 |
| Xizmatlar | 1,1 | 0,2 | 5,1 m. |
| Import tarkibi | 100,0 | 100,0 | 109,7 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 18,9 | 20,9 | 99,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 0,1 | 111,7 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 9,8 | 6,5 | 163,8 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallari | 10,0 | 10,4 | 105,3 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 3,8 | 2,6 | 161,9 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 11,5 | 9,7 | 130,3 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 15,7 | 13,1 | 131,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar | 28,1 | 31,6 | 97,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1,9 | 1,9 | 110,4 |
| Boshqa tovarlar | 0,1 | 3,0 | 3,4 |
| Xizmatlar | 0,1 | 0,2 | 93,0 |


Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(2025- yil yanvar-mart ulushi % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,9 % ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (57,5 %), turli xil tayyor buyumlar (13,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,9 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (6,0 %), nooziq-ovqat xomashyosi (yoqilg'idan tashqari) (6,0 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(2025- yil yanvar-mart ulushi % da)



Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (28,1 %), sanoat tovarlari (15,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,9 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallari (10,0 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,5 %) hamda nooziq-ovqat xomashyosi (yoqilg'idan tashqari) (9,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida yirik hamkor davlatlar bilan
tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)**

| Davlatlar | 2024- y. | 2025- y. |
|--------------------|-----------------|-----------------|
| XXR | 328,8 | 382,3 |
| Eksport | 114,4 | 110,4 |
| Import | 214,4 | 271,9 |
| Rossiya | 311,4 | 339,3 |
| Eksport | 132,9 | 137,2 |
| Import | 178,5 | 202,1 |
| Qozogʻiston | 143,4 | 144,9 |
| Eksport | 22,5 | 24,1 |
| Import | 120,9 | 120,8 |
| Turkiya | 93,3 | 77,8 |
| Eksport | 47,6 | 40,7 |
| Import | 45,7 | 37,1 |
| Braziliya | 14,8 | 21,6 |
| Eksport | 0,0 | 0,0 |
| Import | 14,8 | 21,6 |
| Belorussiya | 30,7 | 26,5 |
| Eksport | 4,3 | 4,2 |
| Import | 26,4 | 22,3 |
| Germaniya | 26,7 | 37,2 |
| Eksport | 1,7 | 1,4 |
| Import | 25,0 | 35,8 |
| Italiya | 38,0 | 14,2 |
| Eksport | 4,7 | 5,4 |
| Import | 33,3 | 8,8 |

2025- yil yanvar-mart oylarida MDH davlatlari bilan
umumiy tashqi savdo aylanmsidagi ulushi % da




Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (30,1 %), Qozog‘iston (11,4 %) hamda Tojikiston (2,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2025- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,6 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 9,6 % ga ko‘paydi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2025- yilning yanvar-mart oylarida 54,4 % ni tashkil qildi (2024- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 55,4 % ga teng bo‘lgan).

Tashqi iqtisodiy faoliyat

**Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining
tashqi savdo aylanmasi**
(mln. AQSh dollari)



So‘ngi yillarda mamlakatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2025- yil yanvar-mart oylarida jami 27,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 21,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘zgarish sur‘ati – 108,0 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2025- yilning yanvar-mart oylarida 21,9 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 13,4 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 8,3 % ga kamaygan.

Shuningdek, 2,2 ming tonna meva va rezavorlar 4,7 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 144,6 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart,
mln. AQSH dollari



Meva va
rezavorlar

2,2 ming
tonna

4,7 mln.
AQSH dollari



Uzum

2,7 ming
tonna

2,7 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oglar

0,4 ming
tonna

0,5 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar

21,9 ming
tonna

13,4 mln.
AQSH dollari

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar-mart oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 18,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tovar - har qanday ko'chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

Tovarlar eksporti - agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Tashqi savdo aylanmasi - mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat - tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat "Bojxona tarifi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili - yuklab jo'natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati - shartnoma valyutasidan qat'i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

Xizmatlar (ishlar) eksporti - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi - norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).